Orcid.org/0009-0001-9464-6480

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O`ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O`QITISHNI OPTIMALLASHTIRISH

Mo'minova Oydin
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
Fozilova Mohigul Farxodovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
El.pochta: fozilova1204@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida O'zbek tilini o'qitish jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari, afzalliklari, duch kelinayotgan muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o'zlashtirish darajasini yaxshilash va interaktiv yondashuvni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: multimediali o'quv materiallari, lingvomamlakatshunoslik kompetensiya, muloqot modeli, Autentik materiallar, local smart texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности, преимущества, возникающие проблемы и пути их решения при оптимизации процесса обучения узбекскому языку с использованием цифровых технологий. Также анализируются пути повышения мотивации студентов, улучшения уровня усвоения материала, совершенствования интерактивного подхода за счет внедрения инновационных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: мультимедийные учебные материалы, языковая компетенция, коммуникативная модель, аутентичные материалы, локальные смарт-технологии.

Abstract: This article discusses the possibilities, advantages, emerging problems, and ways to solve them in optimizing the process of teaching the Uzbek language using digital technologies. Also, ways to increase student motivation, improve the level of mastery, and improve the interactive approach through the integration of innovative technologies into the educational process are analyzed.

Keywords: multimedia educational materials, linguistic competence, communication model, Authentic materials, local smart technologies.

ISSN 3030-3907

KIRISH

Globalizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi zamonda tillarni o‘rganish va o‘qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek tili ham xalqaro miqyosda e’tibor qozonib, uni chet tili sifatida o‘qitish jarayoniga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Xorijiy talabalar, tadqiqotchilar va turli soha vakillari uchun O‘zbek tilini samarali va qiziqarli usullar orqali o‘rgatish muhim masalalardan biridir. An’anaviy o‘qitish usullari qatorida raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda onlayn platformalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt tizimlari, interaktiv darsliklar va multimediali o‘quv materiallari til o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishda ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning til muhitiga moslashuvini tezlashtirish, mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va individual yondashuvni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilamizki, o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish dunyoda yildan yilga ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Jahonda keng tarqalgan tillardan farqli o‘laroq, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasi hali boy tajribaga ega emas. Boshqa til vakillariga o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni va undagi muammolar tadqiqotchilar tomonidan hali yaxshi o‘rganilmagan soha hisoblanadi. O‘zbek tilidan xorijliklar uchun shu kunga qadar yaratilgan o‘quv adabiyotlari hajmini ham bugun yetarli deb bo‘lmaydi. Xususan, o‘zbek tilini ingliz, nemis, xitoy, koreys, rus zabonli o‘rganuvchilarga o‘qitish tajribasi natijasida yuzaga kelgan bir nechta o‘quv qo‘llanmalar va elektron majmualar mavjud. Biroq ularda berilgan o‘quv-didaktik materiallar jonli tilga qay darajada moslashtirilganligi va ularning o‘zbek tilini o‘rganuvchilar nutqini o‘stirishdagi samaradorligi tadqiq etilmagan. O‘zbek tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan qo‘llanmalarda o‘zbek xalqining tarixi, milliyligi, urf-odatlari, an’analari aks etsa-da, lingvomamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotlar olib borilmagan.

Xorijiy til mashg‘ulotlarida lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishda shu til egalari madaniyatiga xos bo‘lgan asl hayotiy vaziyatlarni yaratish, ya’ni muloqot muammolariga doir materialni tanlash, haqiqiqiy muloqot modelini tuzish tamoyili muhim o‘rin tutadi[1]. Aksariyat o‘quv adabiyotlarida ushbu tilni yangi til sifatida o‘rganayotganlarga mo‘ljallangan matnlar beriladi.

ISSN 3030-3907

Ammo metodika rivojlanishi va til o‘qitish tajribasi ortishi bilan xorijiy tildagi jonli muloqotga tayyorlashda bunday matnlarning qay darajada foydali ekanligi bahs-munozaralarga sabab bo‘la boshladi. Darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar mualliflari tomonidan tilni bilishning muayyan darajasiga mo‘ljallab tuzilgan o‘quv matnlarini o‘zlashtirish real muloqot vaziyatida qanchalik yordam beradi, degan savol metodistlarni o‘ylantiradi. Shu bois xorijiy tillar ta’limida real muloqotdan olingan autentik materiallarni topib, ulardan mashg‘ulotlarda foydalanish metodlari keng qo‘llanmoqda. Bunda esa, zamonaviy tehnologiyalar eng yaxshi va qulay yordamchiga aylanadilar. Autentik materiallar yaratishda tehnologiyalardan foydalanish o’rganish jarayonining sifatini oshiradi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish sohasida, garchi autentik materiallar uchrab tursa-da, ularning tanlanishida tasodifiylik ko‘proq. Xususan, autentik materiallar bilan ishlash usullari alohida ishlab chiqilmagan. Shu bois o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida “autentik material”, “autentik matn” tushunchalari termin sifatida qo‘llanmagan. Xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tili darsliklariga ehtiyojning ortishi bilan o‘zbek tili ta’limida lingvomamlakatshunoslik yondashuviga murojaat qilish dolzarb masalaga aylandi. Chet elliklar uchun yaratilgan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi qo‘llanmalarning ayrimlarida bu yondashuv mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, N. Azimovaning “O‘zbek tili. Birinchi bosqich” kitobida audio va videomateriallar bilan ishlash uchun topshiriqlar berilgan[2]. Qo‘llanma A1 daraja uchun tuzilgan va 16 ta mavzudan iborat. Har bir mashg‘ulotning tarkibiga “Asl o‘zbekcha (Uzbek Realia)” rukni kiritilgan. Ushbu rukn ostida autentik videolavhalar ilova qilingan. Videolavhalar, filmlardan parchalarni ko‘rib, autentik audioyozuvlarni eshitib, ularga doir topshiriqlarni bajarish qo‘llanmada ko‘zda tutilgan. Masalan:

1) videolavhani ko‘rib, berilgan satrlarni to‘ldiring;

2) audoiyozuvda eshitgan so‘zlaringizni berilgan so‘zlar ichidan topib belgilang;

3) sizga kelgan elektron xatni o‘qib, unga javob yozing;

4) ko‘rgan filmingiz qahramonlarining surati bilan ularga berilgan ta’riflarni taqqoslang va b.

Ushbu qo‘llanmada suhbatlar, telefon orqali so‘zlashuvlar, nutqiy mavzu bo‘yicha jonli og‘zaki muloqot namunalari ko‘p berilgan. Shunisi e’tiborliki, ularda real, haqiqiy o‘zbekcha so‘zlashuv aks ettirilgan. Xususan, ayrim mavzularda shevaga oid so‘zlar va jumlalar berilganini ham ko‘rish mumkin. Masalan, “Sayohat” mavzusida Toshkentdan ijaraga xonadon olish jarayonining lavhasi

ISSN 3030-3907

berilgan, unda uy egasining nutqida Toshkent shevasi (“mani mahallam”, “ketvommiz”, “gaplashvotgan”, “boruvdik”, “qattan?”, “qaleysiz?” va b.) aks ettirilgan. Bu esa til materialining autentik ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, kitobda autentik rasmlardan ham keng foydalanilgan. Mazkur qo‘llanma o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatish sohasida bugungi kungacha yaratilgan o‘quv adabiyotlari ichida metodik jihatdan eng samaralisi bo‘lib, ingliz zabon til o‘rganuvchilar orasida ommalashgan. U ingliz tili darsliklarining andozasi bo‘yicha tuzilgan va nutqiy faoliyatning barcha zarur turlari bilan ishlash imkonini beradi.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarni til o’rganish jarayoniga jalb qilish va uning samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanishning real imkoniyatlari mavjud[3]:

- Turli xil, ko’rinish va imkoniyatlarga ega bo’lgan raqamli avtotarjimon vositalar, dasturlar va tizimlar;
- Global, korporativ va local smart texnologiyalar;
- Hozirgi davrda katta tezlik bilan rivojlanayotgan hamda aql bobar qilmagan erishayotgan suníy intellekt tizimlari;
- Wiki-texnologiyalar asosida tashkil qilingan dastur, algoritm va tizimlar.

Smart Learning (Aqlli ta’lim)ni rivojlantirish boýicha YUNESKO tomonidan e’lon qilingan XXI asr ta’limning yetakchi tamoyili hamma uchun ta’lim va butun hayot davomida ta’limni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Aqlli ta'lim istalgan vaqtda, istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatini amalga oshiradi. Buning uchun faqatgina hoxish va iroda bo’lsagina bas. Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning asosiy pozitsiyasi shu xolat bilan bog’liqdirki, endilikda eski ta'lim tizimi insonlarni Smart jamiyatda ishlashga tayyorlay olmaydi va zamonaviy Smart texnologiyalarsiz innovatsiyalar yaratish hamda information jamiyatga o’tish mumkin emas. Agar ta'lim tizimi rivojlanishning ushbu yo'nalishlaridan orqada qolsa, u holda uning rivojlanishi mumkin bo’lmay qoladi va u stagnatsiyaga uchray boshlaydi. Ta'lim sohasiga nisbatan Smart texnologiyalarning yondoshuvi quyidagilardan iboratdir[4]. Integratsiyalashgan intellektual ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim va zaruriy sharti shundan iboratki, Smart texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanishi, ularning kundalik hayotga kirib borish intensivligi va ta'lim tizimining doimiy o'zgaruvchan muammolarga reaktsiyasi ma’lum bir intellectual algoritmlarga asoslangan holda hal qilinadi. “Smart Education – Aqlli ta’lim”dan foydalanish va joriy etishning asosiy sababi – mavjud ta’lim tizimini “Smart Economy” va “Smart Society”ning

ISSN 3030-3907

yangi talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratidir. Aqlli ta'limni aqlli axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini zamonaga moslashtirilgan tarzda amalga oshirishni o'z ichiga olgan ta'lim paradigmasi deb hisoblash ham mumkin. Smart Education paradigmasini amalga oshirish o‘zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muhit bilan moslashuvchan o‘zaro munosabatda bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, va malakalarni egallash boýicha ta’lim va tarbiya jarayonini shakllantirishga qaratilgan. Aqlli ta'limning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun unga global axborot jamiyati imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatini berish kerak.

Raqamli texnologiyalar til o‘rganish jarayonida axborotga tezkor kirish, vizual va audio materiallar bilan boyitish, interaktiv mashg‘ulotlar yaratish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi[5]. Quyidagi raqamli resurslar O‘zbek tilini samarali o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin:

- Mobil ilovalar – Duolingo, Memrise, Anki kabi platformalar orqali O‘zbek tilini o‘rganuvchilar so‘z boyligini oshirishlari va grammatika qoidalarini mustahkamlashlari mumkin.
- Onlayn kurslar va veb-saytlar – Moodle, Coursera, Udemy kabi platformalar orqali O‘zbek tili bo‘yicha interaktiv darslar tashkil qilish mumkin.
- Sun’iy intellekt va chat-botlar – Til o‘rganuvchilar uchun AI asosida ishlaydigan suhbatdosh botlar O‘zbek tilida real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi.
- Ovozli va vizual materiallar – YouTube kanallari, podkastlar, interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning tinglab tushunish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning bir necha afzalliklari mavjud bo’lib, ular quyidagilardir[6]:

1. Moslashuvchan va shaxsiy yondashuv – Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar o‘zlariga qulay vaqtda va o‘z tezliklarida til o‘rganishlari mumkin.
2. O‘quv motivatsiyasini oshirish – Gamifikatsiya (o‘yin elementlari) orqali o‘quv jarayoni qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilarning rag‘batini oshiradi.
3. Interaktiv va real hayotiy tajriba – VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyalari orqali o‘quvchilar real hayotga yaqin sharoitda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
4. Natijalarni tahlil qilish va baholash imkoniyati – Sun’iy intellekt tizimlari yordamida o‘quvchilarning yutuqlari va kamchiliklari avtomatik ravishda aniqlanadi va tahlil qilinadi.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarni xulosa qilgan holda shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, til o'rganish jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish va innovatsion metodlarni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda interaktiv usullar orqali til muhitini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayonida qator muammolar va cheklovlar mavjud. Texnik infratuzilmaning yetishmovchiligi, internet tarmog'iga bog'liqlik, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va til muhitining cheklanganligi kabi omillar ta'lim jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday muammolarni hal etish uchun o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash, yangi metodlarni ishlab chiqish, resurslardan samarali foydalanish va mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Kelajakda O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), moslashuvchan o'quv tizimlari kabi innovatsion yondashuvlarni yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Til o'rganish platformalarining boyitilishi, mobil ilovalarning takomillashtirilishi va onlayn ta'lim vositalarining kengayishi O'zbek tilining xalqaro miqyosda o'qitilishini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar orqali O'zbek tilini o'qitishning optimallashtirilishi nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirish, balki O'zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli, bu sohada uzluksiz tadqiqot olib borish, yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish va zamonaviy ta'lim metodologiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulshan Asilova. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari. Article in Foreign Languages in Uzbekistan. December 2023
2. Azimova N. Uzbek: an elementary textbook. — Georgetown University Press, 2010. — 502 p.
3. Сысоев П.В. 1. Информатизация языкового образования: основные направления и перспективы // Иностранные языки в школе. 2012. № 2. С. 2–9.
4. Eshpulatova, H. (2024). Raqamli texnologiyalardan til ta'limida foydalanishning zamonaviy dasturiy vositalari. Modern Science and

ISSN 3030-3907

Research, 3(1), 1–3. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27952

5. O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish milliy portali: www.uzbeklanguage.uz
6. Qodirov, S. (2021). *O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish metodikasi: Nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.

ISSN 3030-3907